


Polimer o'rgimchak to'rlar robototexnika uchun yangi imkoniyatlar ochadi

// 18.03.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/polimer-o-rgimchak-to-rlar-robototexnika-uchun-yangi-imkoniy>



Estoniyadagi Tartu universiteti olimlari o'rgimchaklarning to'r to'qish qobiliyatidan ilhomlanib, uni robotlarga o'tkazishdi. Ularning g'oyasi mashinalarga muayyan vazifalarni hal qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri ish paytida polimer tolalaridan turli tutqichlar va vaqtinchalik harakat yo'llarini yaratishga imkon berdi.

Xususan, bunday o'rgimchak-robot singan shishali to'siqni uning ustiga polimer tunnel to'qish orqali osongina yengib o'tishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, o'zi cho'zilgan tolali tutqich tufayli mo'rt gulni sirdan ko'tardi. Shunisi e'tiborga loyiqki, sun'iy to'r teflon, moyli shimgich va mum bilan qoplangan o'simlik barglari kabi butunlay boshqa sirtlarga yopishib olishga qodir.

Ta'kidlash joiz, bunday robotlarning noodatiy xususiyatlaridan qurilishda, qutqaruv operatsiyalari paytida, ofat zonalarida ishlashda va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Polimer o'rgimchak to'ri tufayli ular osongina turli xil kesib o'tish joylari, ko'priklar va vaqtinchalik konstruksiyalarni yaratishga qodir, bu esa bunday vaziyatlarda foydali bo'lishi mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati